TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi
boshlig‘i
_____ A.Vaxabov
2026-yil “13” iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI

ICHKI AUDIT BO‘YICHA BOSH MUTAXASSISINING 2026-YIL UCHUN YILLIK ISH REJASI

Maqsad: Inspeksiya faoliyatida moliyaviy intizomga rioya etilishi, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining qonunchilik talablariga muvofiqligini o‘rganish, mavjud xatarlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Rejani amalga oshirish davri: 2026-yil iyul–dekabr oylarida.

T/r	Amalga oshiriladigan ishlar	O‘rganish davri	Muddati	Mas’ul
1	Ichki audit faoliyatini tashkil etish, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish hamda ichki audit yo‘nalishlari bo‘yicha ishlarni shakllantirish.	2026-yil	Iyul	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
2	Inspeksiya markaziy apparati va hududiy boshqarmalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini, budjet mablag‘laridan foydalanish holatini risk tahlili asosida o‘rganish.	2026-yil I yarim yilligi	Iyul–avgust	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
3	Inspeksiya markaziy apparati va hududiy boshqarmalarining ish haqi, unga tenglashtirilgan to‘lovlar, yo‘l kira va boshqa xarajatlarning to‘g‘ri hamda qonuniy amalga oshirilishini o‘rganish.	2026-yil I yarim yilligi	Iyul- Dekabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
4	Ichki audit davomida aniqlangan kamchiliklar, ortiqcha to‘lovlar va moliyaviy xatoliklarni umumlashtirish hamda ularni bartaraf etish	2026-yil o‘rganilgan davr	Avgust–sentabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis

Scanned with CamScanner

	bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish.			
5	Hududiy boshqarmalarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, ortiqcha to‘langan mablag‘larni undirish va moliyaviy intizomni mustahkamlash bo‘yicha monitoring olib borish.	2026-yil	Sentabr–oktabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
6	Davlat xaridlari, tuzilgan shartnomalar, tovar-moddiy boyliklar, asosiy vositalar va boshqa xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi hamda maqsadga muvofiqligini o‘rganish.	2026-yil 9 oyi	Oktabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
7	Buxgalteriya hisobi va hisobotlarining yuritilishi, boshlang‘ich hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi hamda moliyaviy operatsiyalarning hisobda to‘g‘ri aks ettirilishini o‘rganish.	2026-yil 9 oyi	Noyabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
8	2026-yil davomida amalga oshirilgan ichki audit ishlari natijalarini umumlashtirish, aniqlangan tizimli kamchilik va xatarlarni tahlil qilish hamda rahbariyatga tegishli takliflar kiritish.	2026-yil yakunlari	Dekabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis
9	2027-yil uchun ichki auditning xavf-xatarlarni baholashga asoslangan yillik ish rejasini ishlab chiqish.	2027-yil rejalari	Dekabr	Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis

Kutilayotgan natijalar:

- moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash;
- ortiqcha va asossiz to‘lovlarni aniqlash hamda ularni undirish choralarini ko‘rish;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;
- Inspeksiya faoliyatidagi moliyaviy xatarlarni kamaytirish;
- 2027-yil ichki audit rejasini risk tahlili asosida shakllantirish.

Scanned with CamScanner

Izoh: Ichki audit tadbirlari xavf darajasi, rahbariyat topshiriqlari va Inspeksiya faoliyatidagi o‘zgarishlardan kelib chiqib, yil davomida belgilangan tartibda aniqlashtirilishi yoki qo‘shimcha tadbirlar bilan to‘ldirilishi mumkin.

Ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis: _____ **V. Xubbimov**

Scanned with CamScanner